

## XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

**Berdiqulova Madina Zokir qizi**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi.

[madinaberdiqulova02@gmail.com](mailto:madinaberdiqulova02@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12740019>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish sohalari va raqamli iqtisodiyot tushunchasi, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirishning samarali xususiyatlari to'g'risida ma'lumot berilgan. Shu jumladan, bu jarayonni amalga oshirishda eng yangi raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'zda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** xizmatlar sohasi, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiya, raqamlashtirish, elektron biznes.

## THE IMPORTANCE OF DEVELOPING SERVICE SECTORS IN THE DIGITAL ECONOMY

**Abstract.** This article provides information on the concept of service industries and the digital economy, as well as effective features of the development of the service industry in the context of the digital economy. Including the use of the latest digital technologies in the implementation of this process.

**Key words:** service sector, digital economy, digital technology, digitization, e-business.

## ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ СЕКТОРА УСЛУГ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о понятии сферы услуг и цифровой экономики, а также эффективных особенностях развития сферы услуг в условиях цифровой экономики. В том числе использование новейших цифровых технологий при реализации этого процесса.

**Ключевые слова:** сфера услуг, цифровая экономика, цифровые технологии, цифровизация, электронный бизнес.

---

Xizmatlar deganda, avvalo, inson ehtiyojini qondirishga qaratilgan mehnat mahsulotini tushunish lozim. Ushbu faoliyat turidan olingan mahsulot(xizmat ko'rsatish)ning asosiy maqsadi, insonlarning aniq talablarini qondirish hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, xizmatlar – bu insonlarning turli ehtiyoj va talablarini qondirishga qaratilgan faoliyatdir

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-YILLARGA MO'LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI”da hududlarda xizmat

ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3.5 million yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadi qo'yilgan.

Respublikamizda xizmatlar sohasi uchun yuqori malakali va sifatli soha mutaxassislarini tayyorlash natijasida xizmat ko'rsatish korxonalarida mavjud resurslardan samarali foydalanish, xo'jalik faoliyatini rivojlantirish eng muhimi sohada o'ta dolzarb bir qator muammoli masalalarni hal etish asosida yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Mazkur holatlar xizmatlar sohasi korxonalarini va shoxobchalarning mohiyati va tabiatini o'zgartirdi.

Xizmat ko'rsatish sohasining tovarlar va xizmatlar bozoridagi o'rni, mavqeini va ahamiyatini tubdan yangilanishga olib keldi. Bu borada xizmat ko'rsatishni raqamlashtirish asosida rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu esa bir tomondan, ortiqcha sarfxarajatlar tejalishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan turli noqonuniy holatlar, korrupsiyaning oldini olish imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida xizmatlar sohasi iqtisodiy jihatdan sanoat ishlab chiqarishiga qaraganda ancha samaralidir, chunki xizmatlar sohasida boshlang'ich faoliyatni amalga oshirish kamroq mablag'larni talab qilib, kapitalning aylanish tezligi ancha yuqori hisoblanadi. Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarini doimiy tarzda barqaror rivojlanishi hamda xizmat ko'rsatish intensivligini ta'minlashda samaradorlikni oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish alohida dolzarb masala hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot – internet orqali, elektron tijorat orqali tovarlar va xizmatlar savdosiga imkon beradi va uni amalga oshiradi. Raqamli iqtisodiyot uchta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: infratuzilma (qurilmalar, dasturiy ta'minot, telekommunikatsiya va boshqalar), elektron biznes (raqamli jarayonlar, tashkilotlarda) va elektron tijorat (tovarlarni onlayn sotish).

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotdir, ammo ko'p jihatdan raqamli iqtisodiyot Internet va Butunjahon internet tarmoqlariga asoslangan bozorlarda biznes operatsiyalarini amalga oshirishini tushunamiz. Raqamli iqtisodiyot ko'plab afzalliklarga ega. Bu to'lovlarning narxini pasaytiradi va yangi daromad manbalarini ochadi.

Onlayn bozorda, an'anaviy iqtisodiyotga nisbatan xizmatlar narxi pastroq (birinchi navbatda reklama xarajatlari kamayishi bilan bog'liq). Bundan tashqari, raqamli dunyoda tovarlar va xizmatlar tezda global bozorga chiqishi va dunyoning istalgan burchagidagi odamlar uchun ochiq bo'lishi mumkin. Taklif qilinayotgan mahsulot iste'molchilarning yangi umidlar yoki ehtiyojlarini qondirish uchun deyarli darhol o'zgartirilishi mumkin. Raqamli iqtisodiyot yanada xilma-xil axborot, ta'lim, ilmiy, ko'ngilochar tarkibini ta'minlaydi – tezroq, sifatliroq va qulayroq.

Aytishimiz mumkinki, raqamli iqtisodiyot siyosiy iqtisodiy, ilmiy-ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy munosabatlardagi aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash yordamida amalga oshiruvchi yangi tizim bo'lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida servis sohasini barqaror rivojlantirish alohida ahamiyatga egadir.

Raqamli ma'lumotlar xizmatlar sohasining asosiy omiliga aylangan holda kompaniyalarning asosiy aktiviga bo'lib, barcha iqtisodiy faoliyatda asosiy rol o'ynaydi. Yaxlit global tarmoqda real vaqt rejimida iqtisodiy tizimlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishni ta'minlovchi xizmat ko'rsatish biznesining axborot muhiti alohida ahamiyatga ega.

Raqamli infratuzilma raqamli asosda ishlaydigan kompaniyalarning hisoblash, telekommunikatsiya, tarmoq ehtiyojlarini ta'minlaydigan texnologiyalar majmuasini o'z ichiga oladi.

Yangi iqtisodiyotning raqamli infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi eng yangi raqamli texnologiyalarga quyidagilar kiradi:

- katta ma'lumotlar texnologiyalari (Big Data)
- blokcheyn texnologiyalari
- internet
- neyron tarmoqlar (sun'iy intellekt)
- virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari
- 3D bosib chiqarish
- mobil qurilmalar
- aqlli sensorlar va boshqalar.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi aloqa xizmatlari, bank xizmatlari, turizm xizmatlari raqamli texnologiyalarni faol joriy etishga to'liq yo'naltirilgan, xizmat ko'rsatish iqtisodiyotidagi ko'plab biznes jarayonlar, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi paradigmasiga muvofiq allaqachon qayta qurilgan.

Xizmat ko'rsatish sohalarini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirishning ahamiyatli jihatlari ko'rib chiqamiz.

Avvalambor, raqamli texnologiyalar eng faol joriy etilayotgan sohalardan biri bu turizm xizmatlaridir. Turistik yo'nalishning jozibadorligini shakllantirish va turistlar oqimini ta'minlash uchun sayohatchi uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yaxshi axborot ta'minotini yaratish kerak.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, sayohatni rejalashtirishda sayyohlarning 80% ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan va tanlangan manzilga oid video va fotosuratlarini o'rganadi, 86% sayohat paytida mobil aloqani asosiy narsa deb bilishadi, sayyohlarning 73% elektron bortga

chiqish talonlari va chiptalar katta ahamiyatga ega deb hisoblashadi. Sayyohlarning 75 foizi saytlarida o'z sharhlarini qoldiradilar, 37% sayyohlar sayohat paytida smartfonlarida konserj xizmatiga muroj, 69% o'zlari yetib borgan manzili haqida maksimal mumkin bo'lgan ma'lumot olishni xohlaydilar, o'rtacha hisobda turistlar sayohat paytida 17 ta turli xil mobil ilovalardan foydalanadilar.

Shuningdek, xizmatlar sohasini raqamlashtirish mehnat bozorida o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Xizmat ko'rsatish sohasida mehnat bozorining tuzilishi ham o'zgarib bormoqda, ayrim kasblarining yo'qolib borishi va yangi kasblarning paydo bo'lishi bashorat qilinmoqda.

Raqamli xizmat ko'rsatish iqtisodiyotida ishlash uchun yangi kognitiv, ijtimoiy xulq-atvor va raqamli ko'nikmalar talab qilinadi, ular raqamli iqtisodiyotda ishlashga qodir kadrlarni tayyorlash jarayonida shakllanishi lozim.

Muhim jihati shundaki, raqamli iqtisodiyot katta hajmdagi axborotni qayta ishlashga asoslanganligi sababli, xodimlarning raqamli kompetensiyalari, xavfsizligi, ishonchliligi, katta hajmdagi axborotni uzoq muddat saqlashi alohida ahamiyat kasb yetadi.

Shu jumladan, raqamli iqtisodiyotda platformaga asoslangan biznes katta ustunlikka ega.

Ham vositachi, ham infratuzilma sifatida ular onlayn harakatlar va platforma foydalanuvchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalar bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni yozib olish va o'chirish imkoniyatiga ega. Raqamli platformalarning o'sishi ularning raqamli ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish qobiliyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq, ammo ularning qiziqishlari va xattiharakatlari daromad olish uchun ushbu ma'lumotlarni qanday qilib tijoratlashtirayotganliklariga bog'liq.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, iqtisodiyotni raqamlashtirish natijasida nafaqat xizmat ko'rsatish sohalari, balki barcha sohalarni minimum xarajat bilan maksimum foyda olish orqali rivojlantirishga erishish mumkin. Yangi iqtisodiyotning raqamli infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish bu jarayonni amalga oshirishda keng imkoniyatlar yaratib beradi.

## REFERENCES

1. Қ.Ж.Мирзаев, Ғ.С.Мустафоев, Б.К.Жанзаков. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти, Дарслик / Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти – Самарқанд.: “STEP-SEL” МЧЖ. Нашриёти, 2023
2. G'.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. (Darslik) –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020.

3. R.H. Ayupov. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2020
4. Alieva G.I, "XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI", Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. March, 2023
5. Samiyev Mirkamol Amridin o'g'li, Artikov Zokir Sayfiddinovich, "RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI", JOURNAL OF MARKETING, BUSINESS AND MANAGEMENT(JMBM)/SJIF FACTOR: 5.57
6. Kurpayanidi Konstantin Ivanovich, Ilyosov Asrorjon Axrorjon o'g'li, "RAQAMLI IQTISODIYOTNING BUGUNGI HOLATI: MUAMMO VA YECHIMLAR", "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2021 yil
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-so Farmoniga 1-ILOVA, "2022-2026-YILLARGA MO'LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI"